



## SUG'URTA KOMPANIYASINING INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI



**Jamolova Xonzoda O'rolboy qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliya va buxgalteriya hisobi” fakulteti talabasi

E-mail: [xonzodajamolova513@gmail.com](mailto:xonzodajamolova513@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada moliyaning eng dolzarb masalasi bo'lmish investitsion faoliyatning aynan sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilishi haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** investitsion faoliyat, moliyaviy barqarorlik, sug'urta mukofotlari, ustav kapitali, ijtimoiy samara, kompaniya likvidligi.

### Kirish

Investitsiyalar- bu tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlariga qo'yilayotgan mulkiy va intellektual qimmatliklarning barcha turlari bo'lib, buning natijasida foyda (daromad) yaratiladi yoki ijtimoiy samaraga erishiladi. Mamlakatimizda investitsion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish, uning hajmini ko'paytirish hamda samaradorligini ta'minlashda sug'urta xizmatlarining hamda sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatining rivoji muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki investitsion faoliyatda sug'urta kompaniyalari ikki vazifani : tashqi va ichki investitsiyalarni turli risklardan sug'urtalash hamda investor sifatidagi faoliyatni amalga oshiradi.

Sug'urta kompaniyasi sug'urta faoliyatidan to'plagan mablag'larni turli sohalarga joylashtirish faoliyati investitsion faoliyat deb ataladi. Investitsion faoliyat sug'urta kompaniyasi moliyaviy resurslarni joylashtirish faoliyatining asosini tashkil etadi.

Sug'urta kompaniyasining investitsion faoliyati - bu kelajakda optimal investitsion daromad olish maqsadida ishlab chiqarish va moliyaviy sohalarning investitsion aktivlariga kompaniyaning investitsion imkoniyatining bir qismini ( sug'urta kompaniyasining vakolatida bo'lgan qismini) transformatsiya qilishdir.

### Adabiyotlar sharhi

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A Vaxabov , Sh.xajibakiyev, N.Muminov, D.G'ozibekov, D.Tojiboyeva, Maxmudovalar tomonidan investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va munosabat bildirilgan. Jumladan, A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar tomonidan investitsiyalarning mazmun-mohiyati bo'yicha bayon etilgan ta'rifda: «investitsiyalar - foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa

qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklar», deb ta'rillangan[1].

Rossiyalik iqtisodchi olim L.Igoshina tomonidan: «investitsiyalar - pulni saqlash, ko'paytirish yoki ijobiy miqdordagi daromadni ta'minlashni hisobga olgan holda uni joylashtirish mumkin bo'lgan har qanday vosita sifatida ifodaladi»,2 deb ta'riflangan. «1.НБeCTHИ,НН» darsliginillg muallifi, professor A.Neshitoy investitsiyalarning mazmunini quyidagicha tavsiflaydi: «foйда olish yoki boshqa samaralarga erishish maqsadida o'z yoki o'zga mamlakatning turli tarmoqlariga tadbirkorlik loyihalari, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar hamda innovatsiya loyihalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan pul mablag'larini (kapitalni) ilzoq muddatga joylashtirishdir»[2].

Xorijlik iqtisodchi olimlardan U.Sharp, Kempbell RMillonell, Stanli, L.Bryu kabilar investitsiyalarning mazmun-mohiyati yuzasidan turlicha ta'riflarni bayon etishgan. Jumladan, Nobel mukofotining iqtisodiyot bo'yicha laureati (1990-yil) U. Sharp ta'kidlashicha: «investitsiyalar kelgusida (ehtimol, nomuayyan) qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan voz kechishdir» 1. «Investitsiyalash» atamasining ma'nosini mana bunday sharhlaydilar: "Kelajakda foyda olish uchun bugun puldan ajralishdir» va hisoblaydilar, mablag'larni yoki real yoxud moliyaviy aktivlarga investitsiyalash mumkin. Ular investitsiyalash atamasi mazmunini kelajakda foyda olish maqsadida bugun pul bilan «xayrlashish»)da ko'radilar[3].

### **Tadqiqod metodologiyasi**

Mazkur ilmiy maqolada sugurta kompaniyalarining investitsion faoliyatni xalqaro standartlariga muvofiq tarzda yurtimiz O'zbekistonda ham uni kengaytirish, bundan mamlakatimiz iqtisodiyotiga ko'riladigan manfaatlarni, foyda va afzalliklarni qolaversa bu yo'ldagi qiyinchilik, kutilishi mumkin bo'lgan muammolar haqida fikr mulohazalar yuritish uchun vazifalar belgilab olindi. Tadqiqot jarayonida empirik tadqiqotni kuzatish, induksiya, deduksiya, jamlash va ma'lumotlar manbalari o'rtasidagi aloqalarni aniqlash usullaridan va nazariy tadqiqotning analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

Investitsiya mablag'lari likvidligining ta'minlanishi sugurta faoliyatining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi, ya'ni sugurta faoliyati turli sugurta obyektlariga xos risklar bilan bog'liq kutilmaganda katta hajmdagi to'lovlarni sugurtalanuvchiga sugurta qoplamasi sifatida to'lab berish zaruratini yuzaga keltiradi. Demak sugurta kompaniyasi katta hajmdagi to'lovlarni qisqa fursatda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Buning uchun sugurta kompaniyasi investitsiya sifatida yonaltirgan vaqtinchalik bosh mablag'larni qisqamuddatda qaytarish orwali sugurta qoplamasini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi talab etiladi[4].

### **1-jadval**

**Makto va mikro darajada sugurta kompaniyalarining investitsion siyosati ahamiyatini belgilovchi omillar**

Makro darajadagi omillar	Mikro darajadagi omillar
Investitsiyalashda milliy iqtisodiyot ehtiyojini qondirish	Inflyatsiyani sugurta zaxiralari va xususiy kapitalga bo'lgan ta'sirini

	yumshatish
Fond bozorida spekulativ operatsiyalar hajmini kamaytirish	Sug'urta tariflari darajasini pasaytirish
Inflyatsion jarayonlarni ushlab turish	Alohida olingan sug'urta operatsiyalari bo'yicha zararlarni qoplash
	Marketing tadbirlari xarajatlarini moliyalashtirish
	Sug'urtachilarni foyda olishga ajalb qilish
	Xususiy kapitalni ko'paytirib boorish

**Manba:** Q.M.Qoldashev. Sug'urta nazariyasi.(Darslik). -T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022-340b.

Sug'urta kompaniyasi investitsion faoliyatining sifati va samaradorligini avvalambor to'g'ri investitsiya siyosati yuritishga bog'liq. Investitsiya siyosati diversifikatsiya, qaytishlik, foydalilik va likvidlik shartlariga javob berishi talab etiladi.

## 2-jadval

**Òzbekiston sug'urta kompaniyalari tomonidan investitsiya obyektlariga yònaltirilgan mablag'lar dinamikasi(mlrd.sòm)**

Investitsiya mablag'lari yo'naltirilgan sohalar	2016	2017	2018	2019	2020
Investitsiyalar jami,sh.j	867.5	1482.5	2010.7	2711.9	3354.6
Bank depozitlari(%)	45.0	45.2	51.8	1424.3	1784.6
Qimmatli qog'ozlar(%)	41.4	43.4	35.2	848.6	957.7
Qarz berish(%)	0.8	0.7	0.7	20.6	41.6
Ko'chmas mulk(%)	5.6	6.5	6.0	230.3	307.5
Tashkilotlar ustav kapitalidagi ishtiroki(%)	7.0	4.1	6.2	257.5	257.5
Boshqa investitsiyalar(%)	0.2	0.1	0.1	4.9	5.7

**Manba:**Q.M.Qoldashev. Sug'urta nazariyasi.(Darslik). -T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022-340b.

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatida qaysi yo'nalishlar ahamiytli ekanini ular yo'naltirgan pul mablag'laridan ko'rish mumkin. Demak 5 yillar kesimidan ko'rishimiz mumkinki, eng katta mablag' investitsiyalar jami,sh.jga yo'naltirilgan va doimiy tarzda o'sib borgan. Huddi shunday eng kam ko'rsatgichni qarz berishga yo'naltirilgan mablag'lar bo'lgan. Yana bir ahamiyatli jihati shundaki ko'chmas mulk hamda tashkilot ustav kapitalidagi

ishtirokiga so'ngi ikki yilda e'tibor juda kuchayib, o'sish dinamikasi 224.3 ni tashkil etib bu ko'rsatgich deyarli 38.3 martaga ko'paygan.

Sugurta tashkilotini investitsiya kapitalining muhim bazaviy manbayi bo'lib sugurta zaxiralari hisoblanadi. Ayniqsa bu manba hayot sugurtasi shartnomalaridan kelib tushadigan mablag'lar hisobidan amalga oshirilganda qulaylik darajasi yuqori bo'ladi. Chunki mazkur sugurta shartnomalari uzoq muddatli tuzilib, ulardan kelib tushgan mablag'larni uzoq muddatli investitsiya loyihalarga yo'naltirish mumkin.

Hayot sugurtasi shartnomalarini tuzishdan ko'zlangan maqsadga ya'ni qulay investitsiya sharoitiga erishish uchun yangi sugurta mahsulotlarini ishlab chiqish va bunda mijozlarga ma'qul keladigan shartlarni qo'llashda quyidagi bosqichlarni e'tiborga olish zarur:

- a) sugurta to'lovlarini amalga oshirish;
- b) sugurta zaxira mablag'larini joylashtirish;
- c) ssuda ko'rinishidagi qaytarib olinadigan summalarni vaqtdan oldin olib qo'yish;
- d) nafaqat, annuitetlar, renta hamda sugurta summalari ko'rinishidagi doimiy to'lovlarni amalga oshirish.

#### Xulosa

Sugurta faoliyatining investitsiya qilishi bu uning funktsiya darajasiga teng bo'lib, bu orqali sugurta kompaniyasi nafaqat risklarni yengillashtirishda balki mamlakatda aholining pul mablag'larini ular uchun ham ijtimoiy ham iqtisodiy manfaat bilan qaytaradi. Shuningdek pul aylanishining yaxshilanishiga olib keladi va aynan shu jarayon sugurtada investitsion faoliyatining ahamiyatini oshiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.S.Mamatov, D.Yu. Xujamqulov, O.Sh. Nurbekov. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 608bet.
2. Игошина Л. Л. Инвестиции: Уч.пос.М.:ЭКОНОМИСТ, 2005.С233
3. Vaxabov AV., Xajibllkiyev Sh.X, MurnilloV N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'1UV qo'UiUllla. T.: (<Mollya}),2010. - B. 303.
4. G'ozibekov D. G', Investitsiyalarni 111oliyalashtirish masal.lari. T.: <<Moliya)), 2003 .. B. 26
5. Q.M.Qoldashev. Sugurta nazariyasi.(Darslik). -T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022-340b.

**Copyright:** © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

